

**ABU HOMID G'AZZOLIYNING "MUKOSHAFATUL QULUB" ASARINING MAZMUN-MOHİYATI****Asadullayeva Laylo**

Termiz davlat universiteti 1 - kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19659210>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asarining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Asarda inson qalbining poklanishi, axloqiy kamolotga erishish, nafsni tarbiyalash hamda Allohga yaqinlashish yo'llari yoritilgan. Muallif tasavvufiy qarashlar asosida qalb kasalliklari va ularni davolash usullarini izohlaydi. Asar insonni ma'naviy yetuklikka yetaklovchi muhim manba sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** qalb, tasavvuf, axloq, nafs, poklanish, ma'naviyat, komillik, Allohga yaqinlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется сущность и содержание произведения Абу Хамида аль-Газали «Мукашафат аль-кулуб». В произведении освещаются вопросы очищения сердца, достижения нравственного совершенства, воспитания души и приближения к Богу. Автор на основе суфийских взглядов раскрывает болезни сердца и способы их исцеления. Произведение рассматривается как важный источник духовного развития человека.

**Ключевые слова:** сердце, суфизм, нравственность, душа, очищение, духовность, совершенство, приближение к Богу.

**Annotation.** This article analyzes the essence and content of Mukoshafatul qulub by Abu Homid G'azzoliy. The work explores the purification of the human heart, moral perfection, discipline of the soul, and ways of drawing closer to God. Based on Sufi teachings, the author explains the spiritual diseases of the heart and methods of their treatment. The book is considered an important source for achieving spiritual maturity.

**Keywords:** heart, Sufism, morality, soul, purification, spirituality, perfection, closeness to God.

"Mukoshafatu-l-qulub" asari Abu Homid G'azzoliy ijodida alohida o'rin tutadi. Gayb) الغيوب علام حضرة إلى المقرب القلوب مكاشفة كتاب Uning ning to liq nomi ilmlarini eng biluvchi Zotga yaqinlashtiruvchi "Qalblar kashfiyoti" kitobi"). Asar arab tilida yozilgan bo'lib, 111 ta bobni o'z ichiga oladi. Unda iymon, namoz, zakot, sabr, qanoat, go'zal axloq, Allohga itoat, qo'shnicilik haqi, g'iybat, sadaqa, foiz, musiqa tinglash, badgumonlik, mayxo'rlik kabi juda ko'plab fiqhiy va hayotiy-maishiy masalalarga e'tibor qaratilgan.

Muallif mazkur mavzularni yoritishda ularga mos Qur'oni Karim oyatlari va hadislarni keltiradi hamda mavzuga doir hikoyatlar, hikmatlardan foydalanadi. Yaxshilikka chaqirish, boriga qanoat va shukr qilish, yo'g'iga sabr qilish kabi sifatlarga undovchi hikmatlar asarda juda ko'plab keltiriladi. Har bir fikr muayyan manba bilan asoslanadi va xulosa chiqariladi. Ba'zi o'rinlarda keltirilgan fikrlar she'riy misralar bilan boyitiladi.

"Mukoshafatu-l-qulub" asari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib turgan masalalarni o'z ichiga olgan va insonlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi, islom dini ahkomlaridan boxabar qiluvchi manba sifatida qadrlanadi. U «G'azzoliyning necha asrlar ilgari yoqqan yuzlab mash'alalaridan bir donasidir. Bu mash'ala sochgan ziyo zamonlar osha so'ngsizlik sari oqib borgusidir.

Inson nasli to qiyomatgacha mavjud bo'larkan, bu asar ham insoniyat uchun mangu ziyo manbai bo'lib, azob-uqubatlar, g'am-tashvishlar va behuzurliklar ichida iztirob chekayotgan shaxslar, siymolar va millatlarga huzur-halovat, baxt-saodat yo'llarini ko'rsatajak».

"Mukoshafatu-l-qulub" asari yozilgan davrdan boshlab katta qiziqish bilan o'qib kelinadi.

Shu bois uning qo'lyozma va toshbosma nusxalari hamda zamonaviy nashrlari ko'pdir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida asarning ikkita. toshbosmasi saqlanadi. №7148 inventar raqami ostida saqlanuvchi birinchi nusxa Misrdagi "Daru-l-kutubi-l-arabiyyati-l-kubro" nomli matbaada hijriy 1327 (milodiy 1909) yilda chop etilgan. O'lchami: 14x21 sm. Hajmi: 328 sahifa. Kitobning titul varag'ida Mustafo al-Bobiy al-Halabiy, uning ukalari Bakri va Isolarning hisobidan chiqarilgani aytilgan. №7185 ashyo raqami ostida saqlanuvchi ikkinchi nusxa esa Misrdagi "Al-matba'atu-l-'amirotu-sh-sharqiyya" nomli nashriyotda hijriy 1323 (milodiy 1905) yili nashr qilingan. O'lchami: 14x20 sm. Hajmi: 451 sahifa.

Kitobning titul varag'ida bu birinchi nashr ekanligi, nashriyotning egasi Shayx Sharaf Musoligi, shuningdek, mazkur kitob Ahmad Nojjiy al-Jamoliy, Muhammad Amin al-Xonijiy va ukasi hisobidan chiqarilgani haqida ma'lumot uchraydi.

Har ikkala toshbosma ham bir xil tarzda boshlangan: dastlab basmala, Allohga hamd, Payg'ambar alayhissalomga na't, keyin qisqacha kirish so'zi beriladi: "...Va ba'd: bu kitobni badi va chiroyli yozilgan "Shayx G'azzoliyga mansub g'ayblarni o'ta biluvchi Zotga yaqinlashtiruvchi qalblar kashfiyoti" kitobidan muxtasar qildim va uni aslidek nomladim. Shirk va gunohlardan Allohdan panoh so'rayman. Unda 111 ta bob'ni berdim. Mazkur manbada ushbu qisqa kirish so'zdan so'ng asarning asosiy matni boshlanadi. Asosiy matndan so'ng kitobning kolofon qismida "Daru-l-kutubi-l-arabiyyati-l-kubro" matbaasining Tahrir bo'limi boshlig'i Muhammad Zahriy G'amroviyning so'ngso'zi berilgan.

So'nggi yillarda "Mukoshafatu-l-qulub" asari arab davlatlarida bir necha bor nashr qilindi.

Masalan, Livanning o'zida olimlar Doktor Abdulloh Xolidiy. Abdulmajid Tama al-Halabiy, Abu Abdurahmon Saloh ibn Muhammad ibn Aviyda, Shayx Abdulvoris Muhammad Ali lar tomonidan nashrga tayyorlangan va chop etilgan.

Misrning poytaxti Qohira shahridagi "Daru-l-hadis" nashriyotida 2004 yilda Ahmad Jod tomonidan nashrga tayyorlanib chop etildi. Mazkur nashr 416 sahifani o'z ichiga oladi. Kitob nashrga tayyorlovchining muqaddimasidan boshlanadi. So'ng "Kitobning G'azzoliyga nisbat berilishi haqida" nomli sarlavha ostidagi maqola va "Imom G'azzoliyning biografiyasi" nomi bilan olimning tarjimai holi keltirilgan.

Noshir Ahmad Jod asarni nashrga tayyorlash ishiga jiddiy yondoshib, buning ustida ancha ishlar qilgan, G'azzoliy tomonidan keltirilgan iqtiboslarga havolalarda qisqacha sharh beradi. Ahmad Jod asarda keltirilgan hadislarning sifatiga e'tibor qaratadi. Deyarli har bir hadisga uni kimlar rivoyat qilgani, hadis roviylarining to'liq. ismi-sharifi, qaysi davrda va qayerda yashab o'tgani, hadisning sahih yoki zaifligi, mashhur hadis to'plamlarida bor-yo'qligi, bor bo'lsa qavs ichida tartib raqami kabilar haqida havolada izoh qoldiradi. Masalan asarning "Tavba haqida" nomli 8-bobida keltirilgan hadisga Ahmad Jod havolada shunday izoh beradi: "Muttafaqun 'alayh. Bu hadisni Buxoriy "Nozik masalalar kitobi da (6507), Muslim "Zikr va duo kitobi"da (2683), Termiziy "Janozalar kitobi"da (1066), Nisoiy "Janozalar kitobi"da (1836), Dorimiy "Nozik masalalar kitobi"da (2756) va Ahmad (22238) lar rivoyat qilishgan".

Mashhur o'zbek shoiri, publisist, tarjimon Miraziz A'zam "Mukoshafatu-l-qulub" asarini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan holda bir necha bor e'lon qildi.

Biroq mutarjim izlanishlardatarjima jarayonida Turkiyada chop qilingan aynan qaysi nashrdan foydalangani haqida ma'lumot bermagan. Qizig'i shundaki, asarning O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan №7148 va №7185 inventar raqamli toshbosmalarida hamda qo'limizda mavjud bo'lgan Misr nashridagi ba'zi boblar, iqtibos sifatida keltirilgan Qur'oni karim oyatlari, hadislar, rivoyatlar asarning o'zbek tilidagi nashrida uchramaydi.

Masalan, "Osmonlar va turli jinslar zikrida") (المختلفة والأجناس السموات ذكر في) nomli yigirma to'qqizinchi bob №7148 va №7185 inventar raqamli toshbosmalarda ham, biz yuqorida tilga olgan Misr va Livan nashrlarida ham mavjud, biroq o'zbek tilidagi tarjimasida yo'q. Ehtimol, bu tarjimon foydalangan nashrda kuzatilgan holatdir.

"Mukoshafat-l-qulub" nashrlarini o'rganish davomida bu kabi holatlarni keyingi kengroq tadqiq qilish va o'z xususalarimizni berishni maqsad qildik. Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asari Abu Homid G'azzoliy islom olamining yirik mutafakkiri, faqih, va tasavvuf ilmining yetuk namoyandalaridan biridir. Uning asarlari inson qalbining tarbiyasi, axloqiy poklanish va ruhiy yuksalishga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida "Mukoshafatul qulub" asari alohida o'rintutadi. Bu asar "Qalblar kashfiyoti" deb tarjima qilinadi va unda inson ruhiy olamini chuqur tushunishga chaqiriladi. Asarda G'azzoliy qalbning holatlari, uning poklanishi va Allohga yaqinlashish yo'llarini batafsil bayon qiladi. U, avvalo, qalbni inson tanasining hukmdori sifatida talqin etadi. Qalb pok bo'lsa, insonning butun hayoti nurga to'ladi; agar qalbni gunoh va nats istaklari qoplab olsa, inson hayotida zulmot hukm suradi. G'azzoliy qalbni oynaga o'xshatadi: agar u doimo poklansa, Alloh nurlari unda aks etadi, aks holda qorayadi.

Asarda insonni doimiy ravishda nafs bilan kurashishga, uni jilovlashga da'vat qilinadi. G'azzoliy natsni eng katta dushman sifatida ko'rsatadi. Inson bu dushmandan faqat ilm, sabr va zikr orqali najot topishi mumkinligini ta'kidlaydi. U Qur'on oyatlari va hadislar asosida o'z fikrlarini mustahkamlaydi va hayotiy misollar bilan boyitadi. G'azzoliy shuningdek, tavba qilish, ixlos, tavakkul, shukr va sabr fazilatlariga alohida e'tibor qaratadi. Ularning har birini nafaqat tushuntiradi, balki qalbni poklashdagi o'rnini ham chuqur tahlil qiladi. Asar har bir musulmonni o'z qalbini ko'zdan kechirishga, yashirin nuqsonlarini aniqlab, ularni bartaraf etishga undaydi.

Mukoshafatul qulub nafaqat diniy risola, balki ruhiy-ma'naviy tarbiya maktabidir. Asar bugungi kunda ham insoniyatga dolzarb saboqlar beradi. Jamiyatdagi axloqiy muammolar, ma'naviy tanazzul va ruhiy iztiroblarning yechimi ana shunday asarlarda mujassam. Shu boisdan, men bu asarni o'qir ekanman, qalbidam poklanishga, ruhiy yuksalishga bo'lgan intilish yanada kuchaydi. Asar menga nafsim ustidan g'alaba qilishning, yaxshilik qilishda sobit bo'lishning va Allohga ixlos bilan yuzlanishning naqadar muhim ekanini yana bir bor tushuntirdi. Abu Homid G'azzoliy insoniyatga nurli yo'l ko'rsatadi. "Mukoshafatul qulub" bu qalbni uyg'otuvchi, ruhni poklovchi va hayotni ma'naviyat bilan bezaydigan bebaho manba. Bunday asarlar har birimizning qalb ko'zgisini tozalashda qo'l keladi va bizni haqiqiy baxt sari yetaklaydi.

Abu Homid G'azzoliy islom tafakkurining yirik namoyandasi, tasavvut ilmining zabardast allomasi sifatida butun dunyoga tanilgan. Uning "Mukoshafatul qulub" asari esa inson qalbining holatlari, uni poklash yo'llari va Allohga yetaklovchi ma'naviy ziyo manbaidir. Bu asar har bir o'quvchiga o'z qalb ko'zgisini tozalash, nafsni jilovlash va taqvoga erishish uchun yo'l ko'rsatadi.

G'azzoliy asarida deydi: "Qalb - bu tanadagi hukmdordir, tana esa uning lashkari." Bu fikr orqali u qalbning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ta'kidlaydi. Agar qalb toza bo'lsa, insonning butun hayoti fayzli kechadi.

Zero, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham hadisda marhamat qiladilar: "Inson tanasida bir go'sht bo'lagi bor, agar u sog' bo'lsa, butun tana sog' bo'ladi; agar u buzulsa, butun tana buziladi. Ana o'sha qalbdir."

Asarda inson doimo nats bilan kurashishi kerakligi uqtiriladi. G'azzoliy yozadi: "Nafs yovvoyi hayvondir, uni jilovlamasang, u seni halokatga yetaklaydi." Bu o'git orqali u insonni nafs istaklariga berilmaslikka, uni aql va iymon bilan boshqarishga chaqiradi. Nafsni zabt etishda esa eng kuchli vosita ilm, zikr va tavba ekanligini tushuntiradi.

G'azzoliy tavba qilishni ruhiy poklanishning ilk bosqichi sifatida ko'rsatadi. U deydi: "Tavba- bu qulfni ochuvchi kalitdir. Tavba qilgan banda Allohga yana yaqinlashadi." Har bir gunohni tushunish va undan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish insonni halokatdan najotga yetaklaydi. Asar davomida u ixlos va tavakkulga alohida urg'u beradi. G'azzoliy yozadi: "Ixlos bu-barcha ishlarini faqat Alloh uchun qilishdir." Tavakkul haqida esa: "Kimki tavakkul qilsa, Alloh unga kifoya qiladi," deya eslatadi. Bu fikrlar bandani Yaratganga to'liq suyangan holda hayot kechirishga undaydi. Shuningdek, G'azzoliy sabr va shukrni mo'minlarning ziynati deb biladi. U deydi: "Sabr - mo'minning qalqonidir. Shukr esa ne'matni ko'paytiradi."

Abu Homid G'azzoliy insoniyatga nurli yo'l ko'rsatadi. "Mukoshafatul qulub" bu qalbni uyg'otuvchi, ruhni poklovchi va hayotni ma'naviyat bilan bezaydigan bebaho manba. Bunday asarlar har birimizning qalb ko'zgisini tozalashda qo'l keladi va bizni haqiqiy baxt sari yetaklaydi.

Abu Homid G'azzoliy islom tafakkurining yirik namoyandasi, tasavvut ilmining zabardast allomasi sifatida butun dunyoga tanilgan. Uning "Mukoshafatul qulub" asari esa inson qalbining holatlari, uni poklash yo'llari va Allohga yetaklovchi ma'naviy ziyo manbaidir. Bu asar har bir o'quvchiga o'z qalb ko'zgisini tozalash, nafsni jilovlash va taqvoga erishish uchun yo'l ko'rsatadi. G'azzoliy asarida deydi: "Qalb - bu tanadagi hukmdordir, tana esa uning lashkari." Bu fikr orqali u qalbning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ta'kidlaydi. Agar qalb toza bo'lsa, insonning butun hayoti fayzli kechadi. Zero, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham hadisda marhamat qiladilar: "Inson tanasida bir go'sht bo'lagi bor, agar u sog' bo'lsa, butun tana sog' bo'ladi; agar u buzulsa, butun tana buziladi. Ana o'sha qalbdir."

Asarda inson doimo nats bilan kurashishi kerakligi uqtiriladi. G'azzoliy yozadi: "Nafs yovvoyi hayvondir, uni jilovlamasang, u seni halokatga yetaklaydi." Bu o'git orqali u insonni nafs istaklariga berilmaslikka, uni aql va iymon bilan boshqarishga chaqiradi. Nafsni zabt etishda esa eng kuchli vosita ilm, zikr va tavba ekanligini tushuntiradi. G'azzoliy tavba qilishni ruhiy poklanishning ilk bosqichi sifatida ko'rsatadi. U deydi: "Tavba- bu qulfni ochuvchi kalitdir.

Tavba qilgan banda Allohga yana yaqinlashadi." Har bir gunohni tushunish va undan chin ko'ngildan pushaymon bo'lish insonni halokatdan najotga yetaklaydi. Asar davomida u ixlos va tavakkulga alohida urg'u beradi. G'azzoliy yozadi: "Ixlos bu-barcha ishlarini faqat Alloh uchun qilishdir." Tavakkul haqida esa: "Kimki tavakkul qilsa, Alloh unga kifoya qiladi," deya eslatadi.

Bu fikrlar bandani Yaratganga to'liq suyangan holda hayot kechirishga undaydi.

Shuningdek, G'azzoliy sabr va shukrni mo'minlarning ziynati deb biladi. U deydi: "Sabr - mo'minning qalqonidir. Shukr esa ne'matni ko'paytiradi." Abu Hamid G'azzoliyning "Mukoshafot-ul-qulub" asari haqida ma'lumotlar juda qiziqarli. Uning asari insoniyat uchun muhim manba bo'lib, jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashda ahamiyatli rol o'ynaydi.

G'azzoliyning ta'kidlashicha, inson ruhi va qalbida yomon fe'llar va tuyg'ularni aniqlash va ularni tuzatish orqali jamiyatdagi muammolarni hal qilish mumkin.

Asarda kibru havoyi, riyo, hasad kabi manfiy xulqlar jamiyat tanazzuliga olib kelishi haqida so'z boradi. Ushbu xulqlarni tuzatish orqali jamiyatda shafqat, adolat va muhabbatni qaror toptirish mumkinligi ta'kidlanadi. G'azzoliyning ishi insonlarning ichki dunyosini tushunishga va ularni yaxshilashga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, "Mukoshafot-ul-qulub" nomi inson qalbida yovvoyi fe'llar va tuyg'ularni kashf etishni anglatadi. Ushbu asar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat rivoji uchun ham muhim ahamiyatga ega. Agar jamiyatda adolat, ixlos va odob-tavozza bo'lsa, bunday jamiyatda baxt va saodat qaror topishi shubhasiz. Abu Homid G'azzoliy (1058-1111) - mashhur islom olimi, fay K va so'fiy bo'lib, u o'zining ko'plab asarlari orqali islom ilmi va tasavvufni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. "Mukoshafatul Qulub" (Qalblarni oshkor qilish) - uning eng mashhur va ibratli asarlaridan biri bo'lib, tasavvufiy axloq, ma'naviyat va qalbni poklash mavzularini qamrab oladi. Ushbu asar inson qalbi, uning holatlari va Alloh bilan bog'lanish yo'llari haqida chuqur tushunchalarni bayon qiladi.

Abu Homid G'azzoliy (1058-1111) mashhur islom olimi, faylasuf va so'fiy bo'lib, u o'zining ko'plab asarlari orqali islom ilmi va tasavvufni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. "Mukoshafatul Qulub" (Qalblarni oshkor qilish) -uning eng mashhur va ibratli asarlaridan biri bo'lib, tasavvufiy axloq, ma'naviyat va qalbni poklash mavzularini qamal Ushbu asar inson qalbi, uning holatlari va Alloh bilan bo yo'llari haqida chuqur tushunchalarni bayon qiladi.

Kimki Allohning g'azabiga duchor bo'lmaslikni va rahmatiya erishib, jannatiga kirishni istasa, nafsini dunyoviy havo-havasdan tiysin va dunyoning qiyinchiliklariga hamda musibatlariga chidab, sabr qilsin! Bu borada Alloh buyuradi: Alloh musibatlariga chidab sabr qilguvchilarni sevadi (Oli Imron surasi, 146-oyatning so'nggi). Sabr bir qator hollarda zulmlidir.

1. Allohga itoat qilishdagi sabr va sabot.
2. Alloh harom qilgan narsalardan tiyilishdagi sabr va sabot.
3. Musibatlariga va ayniqsa musibatga duchor bo'lgan ilk onlaridagi sabr va sabot.

Asarda keltirilganidek, inson qanday holatda bo'lsa ham, sabrli va shukrli bo'lishi lozim. Chunki Alloh sabr qiluvchilarni sevadi.

Mukoshajatul qulub inson qalbini kashf etishga da'vat qiluvchi bebaho asardir. Asarda nafaqat ma'rifiy pand-nasihatlari, balki Qur'on oyatlari va hadislar asosida berilgan chuqur ruhiy ta'limot mujassam. G'azzoliy o'quvchisini har bir bobda o'z qalbini tahlil qilishga undaydi, gunohlarni tark etishga, Allohga yaqinlashishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytganda, "Mukoshafatul qulub" bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlardan biridir. Bu asarni o'qir ekanman, har bir bobda o'zimni qayta kashf etgandek bo'ldim. G'azzoliyning so'zlari qalbinga nur sochdi, nafsimni jilovlashga undadi.

Uning: "Qalb ko'zgudekdir, agar unga g'ubor qo'nsa, poklab turmoq kerak," degan so'zlari har birimiz uchun ibrat bo'lishi kerak.

Zero, qalblarni poklovchi, insonni ruhiy yuksaltiruvchi bunday asarlar bizni baxt va najot sari yetaklaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatu-l-qulub. - Misr. Daru-l-kutubi-l-arabiyyati-l-kubro. 1909. O'zR FA Sharqshunoslik instituti. Toshbosma № 7148.
2. <https://www.scribd.com/document/924256254/Abu-Homid-G%CA%BBazzoliyning-Mukoshafatul-Qulub-Asari-Haqida-Esse>

3. <https://www.scribd.com/document/924256254/Abu-Homid-G%CA%BBazzoliyning-Mukoshafatul-Qulub-Asari-Haqida-Esse>
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/abu-homid-muhammad-gazzoliy-ihyoul-ulumdan-parchalar.html>